O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
TOSHKENT VILOYATI TOSHKENT TUMANI HOKIMI
QARORI

2022 - yil 29 - mart 113-10-212-Q/22 Toshkent tuman hokimligi

Toshkent viloyati hokimining 2022-yil 5-martdagi 151-10-0-Q/22-son qarori ijrosini ta`minlash to`g`risida

“Umumiy harbiy majburiyat va harbiy xizmat to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasining Qonuni ijrosini ta’minlash, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 22-fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarini muddatli harbiy xizmatga navbatdagi chaqiruvi hamda belgilangan xizmat muddatini o‘tab bo‘lgan muddatli harbiy xizmatchilarni Qurolli Kuchlar rezerviga bo‘shatish to‘g‘risida”gi PQ–140-son qarori hamda Toshkent viloyati hokimining 2022-yil 5-martdagi 151-10-0-Q/22-son qarori ijrosini ta’minlash maqsadida va O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6 va 25 moddalariga asosan,

QAROR QILAMAN:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 22-fevraldagi PQ–140-son qarori hamda Toshkent viloyati hokimining 2022-yil 5-martdagi 151-10-0-Q/22-son qarori rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Quyidagilar:

chaqirilish muddatini kechiktirish huquqiga ega bo‘lmagan O‘zbekiston Respublikasi chaqiruv yoshidagi fuqarolari 2022-yilning mart-aprel oylarida muddatli harbiy xizmatga chaqirilsin;

muddatli harbiy xizmatni o‘tashga yaroqli hamda chaqirilish muddatini kechiktirish va chaqirilishidan ozod etish huquqiga ega bo‘lmagan, biroq ushbu chaqiruv mobaynida Qurolli Kuchlar safiga chaqirilmaydigan fuqarolar safarbarlik chaqiruv rezerviga olinsin;

muddatli harbiy xizmatning belgilangan muddatini o‘tab bo‘lgan harbiy xizmatchilar 2022-yilning mart-aprel oylarida O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlar rezerviga bo‘shatilsin.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-martdagi “O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarini harbiy xizmatga chaqirish tartibini yanada takomillashtirish chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ–4630-son qarori bilan tasdiqlangan “Fuqarolarni muddatli harbiy va muqobil xizmatlarga chaqirish, safarbarlik chaqiruvi rezervidagi xizmatga olish bo‘yicha komissiyalar faoliyatini tashkil etish tartibi to‘g‘risida”gi nizom hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 25-dekabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarida tinchlik va urush davrida tibbiy ko‘rikdan o‘tkazish to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi
PQ–4076-son qarori bilan tasdiqlangan O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarida tinchlik va urush davrida tibbiy ko‘rikdan o‘tkazish to‘g‘risidagi nizom talablariga asosan qo‘yidagi komissiyalar va rejalar:

Hududiy komissiyasining asosiy tarkibi 1-ilovaga muvofiq;

Tuman Mudofaa ishlari bo`limi huzuridagi butlash komissiyasi tarkibi
2-ilovaga muvofiq;

Tuman Mudofaa ishlari bo`limi huzuridagi hududiy-tibbiy komissiyasi tarkibi 3-ilovaga muvofiq;

Tuman Mudofaa ishlari bo`limi huzuridagi hududiy-tibbiy komissiyasi o`rindoshlari tarkibi 4-ilovaga muvofiq;

Tuman Mudofaa ishlari bo`limi huzuridagi hududiy-tibbiy komissiyasi hamshiralari tarkibi 5-ilovaga muvofiq;

Tuman Mudofaa ishlari bo`limiga 2022-yilgi chaqiruvni sifatli va belgilangan reja-jadval asosida o`tkazishni ta`minlash maqsadida texnik xodim ajratuvchi korxona va tashkilotlar ro`yxati 6-ilovaga muvofiq;

Tumanda muddatli harbiy xizmatning belgilangan muddatlarini o‘tab bo‘lgan fuqarolarni xizmatdan bo‘shatish hamda O‘zbekiston Respublikasi Qurolli

Kuchlariga navbatdagi chaqiruvni yuqori saviyada o‘tkazish chora-tadbirlari rejasi 7-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

4. Tuman hokimining o‘rinbosari (I.Dostonov), tuman Mudofaa ishlari bo`limi boshlig‘i (D.Mansurov) fuqarolarni muddatli harbiy va muqobil xizmatlarga chaqirish, safarbarlik chaqiruvi rezervidagi xizmatga olish bo‘yicha komissiyalar faoliyatini tashkil etsin.

5. Tuman hududiy komissiyasi:

tuman Mudofaa ishlari bo`limi tomonidan tayyorlangan savolnoma asosida hududdagi yig‘in va chaqiruv punktlarining moddiy-texnik bazasi va jihozlanishi, chaqiruv komissiyasi ish rejasi va faoliyatining tashkil etilishi holatini tanqidiy-tahliliy o‘rgansin va mavjud kamchiliklarni bartaraf etishda amaliy yordam ko‘rsatsin;

o‘rganish natijalari bo‘yicha tegishli ma’lumotlarni 2022-yil 1-martga qadar (bajarilgan ishlar, mavjud kamchiliklar va muammolar, ularni hal etish yechimlari bo‘yicha takliflarni aniq ko‘rsatgan holda) tuman hokimligiga taqdim etsin.

6. Tuman hokimining o‘rinbosari (I.Saidikarimov), O‘zbekiston Yoshlar ishlari agentligi tuman bo`limi (O.Abdulxayev) fuqarolarni muddatli harbiy xizmatga kuzatish va harbiy xizmatdan kutib olish tantanalariga chaqiriluvchilarning ota-onalari, mahalla faollari, faxriylarning ishtiroki va chiqishlarini tashkil etish chora-tadbirlarini ko‘rsin.

7. Tuman hokimining o‘rinbosari (I.Saidikarimov), tuman Mudofaa ishlari bo`limi (D.Mansurov) Mudofaa vazirligi huzuridagi Jamoatchilik kengashi davlat va jamoat tashkilotlari bilan hamkorlikda yurtimizdagi tinchlik va osoyishtalik, amalga oshirilayotgan islohotlar, shu jumladan harbiy sohaga oid me`yoriy hujjatlar mazmun-mohiyatini muddatli harbiy xizmatga chaqirilayotgan fuqarolar ongiga singdirish bo‘yicha vazifalar topshirilsin.

8. Tuman Mudofaa ishlari bo`limi (D.Mansurov):

tumanda chaqiruv yoshidagi fuqarolarni 2022-yil mart-aprel oylarida muddatli harbiy xizmatga chaqirish hamda safarbarlik chaqiruv rezervi xizmatiga olish ishlari yuqori saviyada tashkil etilishini;

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2009-yil 14-yanvardagi “Fuqarolarni muddatli harbiy xizmatga yig‘ish va jo‘natish, ularni harbiy qismlarda qabul qilish, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Qurolli

Kuchlari rezerviga bo‘shatilgan harbiy xizmatchilarni yashash joylariga qaytarishni tashkil etish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 10-sonli qaroridagi vazifalar bajarilishini;

fuqarolarni muddatli harbiy xizmatga yig‘ish va jo‘natish tadbirlarini yuqori saviyada tashkillashtirish maqsadida bo`limdan mas’ul shaxslar hududlarga biriktirilishini va 3-4-ilovalar bilan tasdiqlangan hududlarga biriktirilgan mas’ullar bilan hamkorlikda ishlashi yo‘lga qo‘yilishini;

tumanda 2022-yil mart-aprel oylarida safarbarlik chaqiruvi rezervi xizmati ishlarini yuqori saviyada tashkil etish maqsadida belgilangan tartibda Toshkent tumani Mudofaa ishlari bo‘limi chaqiruv punktida tuman tibbiy chaqiruv komissiyasi tomonidan safarbarlik chaqiruvi rezervi xizmatiga olingan chaqiriluvchilar tibbiy ko‘rikdan o‘tkazilishini;

tuman Hududiy komissiyasi va hududlarga biriktirilgan mas’ullar tomonidan taqdim etilgan materiallarni tahlil qilib, umumiy ahvol bo‘yicha umumlashtirilgan ma’lumotlar 2022-yilning 1-mart kuniga qadar tuman hokimligiga kiritilishini;

muddatli harbiy xizmatga chaqiriladigan fuqarolarni yig‘ish, ularni harbiy qismlarga jo‘natish, O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari zaxirasiga bo‘shatilgan harbiy xizmatchilarni kutib olish marosimlarini yuqori saviyada tashkil etishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlarni ishlab chiqish va uning bajarilishini;

muddatli harbiy xizmatga yangidan chaqirilayotgan fuqarolar uchun belgilangan namunadagi kiyim-bosh va boshqa anjomlar tuman yig‘in punktiga (harbiy qismlarga jo‘natish jadvali asosida) o‘z vaqtida yetkazilishini;

tegishli bo`lim, tashkilot va jamoat tashkilotlari bilan hamkorlikda muddatli harbiy xizmatga chaqirilgan, safarbarlik chaqiruvi rezervidagi xizmatga o‘tkazilgan, muddatli va safarbarlik chaqiruvi rezervidagi xizmatni o‘tab, Qurolli Kuchlar rezerviga bo‘shatilgan harbiy xizmatchilar o‘rtasida qonun hujjatlarida belgilangan imtiyozlar haqida tushuntirish ishlari tashkil etilishini ta`minlasin.

9. Tuman Tibbiyot birlashmasi (X.Asadov):

Fuqarolarni tibbiy ko‘rikdan o‘tkazish bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 25-dekabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarida tinchlik davrida tibbiy ko‘rikdan o‘tkazish to‘g‘risidagi Nizomni tasdiqlash haqida”gi PQ–4076-son qaroridagi vazifalar ijrosi ta’minlansin;

O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi, Milliy gvardiya, Favqulodda vaziyatlar vazirligi, Davlat xavfsizlik xizmati, Ichki ishlar vazirligi, Sog‘liqni saqlash vazirliklarining 2019-yil 14-martdagi “O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarida tinchlik va urush davrida tibbiy ko‘rikdan o‘tkazishni tashkil etish va amalga oshirish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi 11, 8, 5, 6, 23qq, 37-son qarorining 2-ilovasiga muvofiq tibbiy komissiyalar va HTK shifokor-mutaxasislarning xonalarini jihozlanishi lozim bo‘lgan dori vositalari va tibbiyot buyumlari bilan ta’minlansin;

chaqiriluvchilar tibbiy hujjatlari hamda kasallik tarixidan ko‘chirmalar, ruxiy-asab kasalliklari, narkologik, teri-tanosil dispanserlari, OITSga qarshi kurash va sanitariya-epidemiologiya osoyishtaligi, ftiziatriya va pulmonologiya markazlaridan ro‘yxatlar harbiy-tibbiy komissiyaga o‘z vaqtida taqdim etilishi ta’minlansin;

kasallik alomatlari aniqlangan chaqiriluvchilarni belgilangan tartibda davolanishi va sog‘lomlashtirilishini tashkillashtirsin;

tuman chaqiruv hamda yig‘uv punktlarini har kunlik tozalik holatini saqlash maqsadida, 3 nafardan sanitar xodimlar ajratsin va ularning ish faoliyatini doimiy nazoratga olsin;

tumandagi tibbiy komissiyalar tarkibi ko‘rib chiqilib, ular tarkibini yuqori malakali va tajribali xodimlar bilan to‘liq ta’minlash, shuningdek, chaqiriluvchilarni tibbiy ko‘rikdan o‘tkazish jarayonida adolat va xolislik mezonlari asosida bo‘lishini ta’minlash yuzasidan tibbiy komissiya katta shifokorlari mas’uliyatini yanada oshirish choralarini ko‘rsin.

O‘zbekiston Respublikasi “Umumiy harbiy majburiyat va harbiy xizmat to‘g‘risida”gi qonuni 50-moddasiga asosan tuman tibbiy komissiyalar tarkibidagi mutaxassis shifokor va hamshiralarga qo‘shimcha moddiy jihatdan ta’minlash qonun hujjatlariga muvofiq moliyalashtirilishi belgilab qo`yilsin.

10. Tuman sanitariya-epidemiologik osoyishtalik xizmati (Z.Kadirov) chaqiriluvchilarni tibbiy ko‘rikdan o‘tkazish jarayonida yuqumli kasalliklarning oldini olish uchun tuman Rahbariyat kengashi a’zolari, mutaxassis shifokor va hamshiralar, shuningdek, chaqiruvga mas’ul bo‘lgan shaxslarni tibbiy yuz niqoblari, antiseptik vositalar hamda maxsus kiyimlar bilan ta’minlash va haroratni masofadan o‘lchash moslamalarini ajratsin.

11. Tuman Aholi bandligiga ko`maklashish markazi (lavozimiga ko`ra):

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 2-iyundagi 339-sonli qaroriga muvofiq muddatli harbiy xizmatni o‘tagan fuqarolarni ularning mutaxassisliklarini inobatga olgan holda, shu jumladan mehnat yarmarkalarini o‘tkazish orqali qonunchilikda o‘rnatilgan tartibda ishga joylashtirish chora-tadbirlarini ishlab chiqsin va amalga oshirsin;

Mudofaa ishlari bo‘limi tomonidan taqdim etilgan ma’lumotlar asosida muddatli harbiy xizmatdan Qurolli Kuchlar rezerviga bo‘shatilgan fuqarolarning ro‘yxatlarini umumlashtirib borsin;

muddatli harbiy xizmatni va safarbarlik chaqiruvi rezervida xizmatni o‘tagan fuqarolarni belgilangan tartibda kichik va xususiy tadbirkorlik bilan shug‘ullanishga keng jalb etishga ko‘mak bersin;

muddatli harbiy xizmatni va safarbarlik chaqiruvi rezervida xizmatni o‘tagan fuqarolarga o‘rnatilgan tartibda tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish, tadbirkorlik faoliyati uchun kadrlar tayyorlash va ularni o‘qitishni tashkil etish masalalari bo‘yicha axborot va konsultatsiya yordami berishni tashkil etsin.

12. O‘zbekiston Yoshlar ishlari agentligi tuman bo`limi (O.Abdulxayev) va huquqni muhofaza qiluvchi idoralar bilan birgalikda rezervga bo‘shatilgan harbiy xizmatchilarni, ayniqsa qonunchilikka muvofiq ishga joylashtirish imkoniyati bo‘lmaganlarni ijtimoiy muhofaza qilish maqsadida ularni tegishli mutaxassisliklarni egallash hamda malakasini oshirish kurslariga yuborish chora-tadbirlarini ko‘rsin.

13. Tuman Ichki ishlar boshqarmasi (D.Mirzamamedov):

yig‘in va chaqiruv punktlarida, shuningdek, muddatli harbiy xizmatga chaqirilgan harbiy xizmatchilarni harbiy qismlarga jo‘natish joylarida jamoat tartibini saqlasin;

yo‘l harakati xavfsizligini ta’minlash maqsadida muddatli harbiy xizmatga chaqirilgan harbiy xizmatchilarni harbiy qismlarga jo‘natish joylariga olib boradigan yo‘nalishlarni oldindan aniqlash, ajratilgan avtotransport vositalarini o‘z vaqtida texnik ko‘rikdan o‘tkazish, haydovchilarga yo‘l harakati qoidalariga rioya etishga yo‘riqnoma bo‘yicha tushuntirish berish, texnik jihatdan nosoz avtotransport vositalaridan foydalanishga yo‘l qo‘ymaslik va chaqiriluvchilarga xizmat ko‘rsatadigan avtotransport vositalarni IIBB yo‘l harakati xavfsizligi

bo`limi kuzatuvida harakatlanishini ta’minlash choralarini ko‘rsin;

belgilangan vaqtda hududiy tibbiy komissiyalardan o‘tish uchun chaqiruv punktlariga kelmagan chaqiriluvchilarni tuman Mudofaa ishlari bo‘limiga yetkazib kelishda amaliy yordam ko‘rsatsin.

14. Tuman Turizm va sport bo`limi (A.Niyazov), tuman Madaniyat bo`limi (G`.Xojiyev) muddatli harbiy xizmatga kuzatish va harbiy xizmatdan kutib olish tantanalarida ishtirok etadigan badiiy jamoalar, taniqli xonandalar, san’atkorlar, shuningdek, yozuvchi va shoirlar guruhlari tarkibini hududlar kesimida shakllantirsin hamda ularning tantanalarga o‘z vaqtida ishtirok etishini ta’minlasin.

15. Ma’naviyat va marifat markazi tuman bo‘limi (N.Mamajonov), tuman Mudofaa ishlari bo`limi (D.Mansurov) bilan birgalikda:

o‘tgan yillar mobaynida qabul qilingan harbiy sohaga oid qonun va qonunosti hujjatlari hamda bu yo‘nalishda amalga oshirilayotgan islohotlar mazmun-mohiyati, bunyodkorlik ishlari, tinchlik va osoyishtalikning qadr-qimmati to‘g‘risida targ‘ibot-tashqivot ishlarini olib borish uchun tegishli davlat va jamoat tashkilotlari uchun uslubiy tavsiyalar tayyorlab, ularni joylarga yetkazsin;

2022-yil mart-aprel oylarida Mudofaa ishlari bo‘limi hamda chaqiruv punktlarini chaqiriluvchilarda yuksak ma’naviy-ahloqiy fazilatlarni tarbiyalash, faol hayot pozitsiyasini shakllantirish hamda vatanparvarlik, mamlakat taqdiri uchun daxldorlik hissini oshirishga yo‘naltirilgan ko‘rgazmali targ‘ibot vositalari bilan ta’minlashda amaliy yordam ko‘rsatsin;

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti, Qurolli Kuchlar Oliy Bosh qo‘mondonining Vatan himoyachilariga yo‘llagan bayram tabriklari, shuningdek, shu mavzuga tegishli ma’ruzalarining mazmun-mohiyatini chaqiruv va harbiy qismlarga kuzatish marosimlarida yosh askarlarga tushuntirish hamda harbiy qismlarda targ‘ibot ishlarini tashkil etishda foydalanish uchun yosh ofitserlar, serjantlar va askarlar uchun mo‘ljallangan maxsus risolalar, bukletlar tayyorlab, tegishli mutasaddi idoralar va harbiy qismlarga yetkazish choralarini ko‘rsin.

16. Tuman Xalq ta’limi bo`limi (M.O`tkirov) fuqarolarni muddatli harbiy xizmatga kuzatish va harbiy xizmatdan kutib olish tantanalariga o‘quvchilarning faol ishtirokini ta’minlash yuzasidan belgilangan tartibda tashkiliy-amaliy chora-tadbirlarni ko‘rsin.

17. Tuman hokimligi Axborot xizmati (D.Ismailova)ga harbiy sohada amalga

oshirilgan islohotlar, fuqarolarni muddatli harbiy xizmatga yig‘ish va jo‘natish, ularni harbiy qismlarda qabul qilish, shuningdek, Qurolli Kuchlar rezerviga bo‘shatilgan harbiy xizmatchilarni yashash joylariga qaytarish tadbirlarini ommaviy axborot vositalarida keng yoritib borish tavsiya etilsin.

18. Tuman Moliya bo`limi (B.Abdurahmonov) hamda tegishli bo`lim va tashkilotlar qonun hujjatlarida belgilangan tartibda chaqiruv ishlarini sifatli tashkil qilish, chaqiriluvchilarni harbiy qismlarga jo‘natishida “O‘zbekiston Qurolli Kuchlari” to‘plamlar sumkalarini sotib olish bilan bog‘liq sarf-xarajatlarni qoplash uchun tuman Mudofaa ishlari bo`limining so‘roviga asosan mahalliy budjetidan amaldagi qonunchilikda belgilangan tartibda zarur mablag‘lar ajratilishini ta`minlasin.

19. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish tuman hokimining yoshlar siyosati, ijtimoiy rivojlantirish va ma’naviy-ma’rifiy ishlar bo‘yicha o‘rinbosari I.Dostonov zimmasiga yuklansin.

Tuman hokimi **O.Rustamov**

Toshkent tuman hokimining
2022 yil 29 martdagi
113-10-212-Q/22-son qaroriga
1-ilova

Tuman hududiy komissiyasining asosiy TARKIBI

1.	S.Ergashev	-	Tuman hokimining birinchi o`rinbosari, *chaqiruv komissiya raisi*
2.	I.Dostonov	-	Tuman hokimining Yoshlar siyosati, ijtimoiy rivojlantirish, ma`naviy va ma`rifiy-masalalar bo`yicha o`rinbosari
3.	D.Mansurov	-	Mudofaa ishlari bo`limi boshlig`i, *komissiya raisi o`rinbosari*
4.	U.Sodiqov	-	Ichki ishlar boshqarmasi boshlig`i o`rinbosari
5.	I.Saidikarimov	-	Mahalla va oilani qo`llab-quvvatlash bo`limi boshlig`i
6.	I.Akromov	-	Tuman tibbiy chaqiruv komissiyasi katta shifokori
7.	F.Utebaeva	-	Tuman tibbiy chaqiruv komissiyasi kotibasi.

Toshkent tuman hokimining
2022 yil 29 martdagi
113-10-212-Q/22-son qaroriga
2-ilova

Tuman Mudofaa ishlari bo`limi huzuridagi butlash komissiyasi TARKIBI

1.	Toshkent harbiy okrugi vakili, *butlash komissiyasi raisi*	-	Kapitan Farxod Yusupovich Kurbonov
2.	Zangiota tumani FV bo`limi boshlig`i	-	Kapitan Akbarov Mirkomil Mirsalim o`g`li
3.	Zangiota tumani Qo`riqlash bo`limi boshlig`i	-	Podpolkovnik Xolmedov Iskandar Ismatullaevich
4.	DXX Chegara qo`shinlari vakili	-	Podpolkovnik Xazinov Renat Shoa`zamovich
5.	Tuman Mudofaa ishlari bo`limi xizmatchisi, butlash *komissiyasi kotibi*	-	R.Raxmonova

Tuman Mudofaa ishlari bo`limi huzuridagi butlash komissiyasi TARKIBI

1.	Toshkent harbiy okrugi vakili, *butlash komissiyasi raisi*	-	Kapitan Farxod Yusupovich Kurbonov
2.	Zangiota tumani FV bo`limi boshlig`i	-	Kapitan Akbarov Mirkomil Mirsalim o`g`li
3.	Zangiota tumani Qo`riqlash bo`limi boshlig`i	-	Podpolkovnik Xolmedov Iskandar Ismatullaevich
4.	DXX Chegara qo`shinlari vakili	-	Podpolkovnik Xazinov Renat Shoa`zamovich

5.	Tuman Mudofaa ishlari bo`limi xizmatchisi, butlash *komissiyasi kotibi*	-	R.Raxmonova

Toshkent tuman hokimining
2022 yil 29 martdagi
113-10-212-Q/22-son qaroriga
3-ilova

Tuman Mudofaa ishlari bo`limi huzuridagi hududiy-tibbiy komissiyasi TARKIBI

T/r	F.I.Sh.	Mutaxassislik bo`yicha	TCHEK bo`yicha (yil)	Malaka toifasi	Asosiy ish joyi	Izoh
1	Akromov Ikrom Inagamovich	Katta shifokor	31	Oliy	Toshkent tumani KTP	
2	Boboev Erkin Tulaganovich	Teritanosil kasalliklari shifokori	40	Birinchi	Toshkent tumani KTP	
3	Abduazimov Muzaffar Xokimovich	Jarroh shifokori	21	Oliy	Toshkent tumani KTP	
4	Xoji-Muxammedov Ulug`bek Turg`unovich	Asab kasalliklari shifokori	5	Oliy	Toshkent tumani KTP	
5	Sattorov Muzaffar Yuldashevich	Ko`z kasalliklari shifokori	1	Yo`q	Zangiota tumani KTP	
6	Yusupova Farog`at Muxammedjanovna	Quloq burun kasalliklari shifokori	2	Yo`q	Toshkent tumani KTP	
7	Kosimova Zarifa Raxmatovna	Tish kasalliklari shifokori	1	Oliy	Toshkent tumani KTP	
8	Tulaboeva Nilufar Maxkamovna	Ichki kasalliklar shifokori	27	Oliy	Toshkent tumani KTP	
9	Rustamova Surayyo Ikramovna	Ruhiy kasalliklar shifokori	10	yo`q	Toshkent tumani KTP	

Toshkent tuman hokimining
2022 yil 29 martdagi
113-10-212-Q/22-son qaroriga
4-ilova

Tuman Mudofaa ishlari bo`limi huzuridagi hududiy-tibbiy komissiyasi o`rindoshlari TARKIBI

T/r	F.I.Sh.	Mutaxassislik bo`yicha	Asosiy ish joyi	Toifasi
1	Abduazimov Muzaffar Xokimovich	Katta shifokor	Toshkent tumani KTP	Oliy
2	Xolmurodov Elmurod	Teritanosil kasalliklari shifokori	Toshkent tumani KTP	2-toifa
3	Abdumavlonov Baxtiyor	Jarroh shifokori	Toshkent tumani KTP	2-toifa
4	Maxamadjonov Kudratjon Raxmatjon o`g`li	Asab kasalliklari shifokori	Toshkent tumani KTP	Yo`q
5	Ikromov Fazliddin	Ko`z kasalliklari shifokori	Toshkent tumani KTP	Oliy
6	Yusupov Muzaffar	Quloq burun kasalliklari shifokori	Toshkent tumani KTP	Yo`q
7	Rixsibekov Nuriddin	Tish kasalliklari shifokori	Toshkent tumani KTP	oliy
8	Gulomova Ma`suda	Ichki kasalliklar shifokori	Toshkent tumani KTP	oliy
9	Shoxasanova Kamola	Ruhiy kasalliklar shifokori	Toshkent tumani KTP	Yo`q

Toshkent tuman hokimining
2022 yil 29 martdagi
113-10-212-Q/22-son qaroriga
5-ilova

Tuman Mudofaa ishlari bo`limi huzuridagi hududiy-tibbiy komissiyasi hamshiralari TARKIBI

T/r	F.I.Sh.	Lavozimi	Asosiy ish joyi	izox
1	Mahkamova Nigora	Komissiya kotibasi	Zangiota tumani KTP	
2	Utebaeva Fotima	Komissiya kotibasi	Toshkent tumani KTP	
3	Xamidova Shaxnoza	Ichki kasalliklar shifokori	Toshkent tumani KTP	
4	Usmonova Maxsuma	Quloq burun kasalliklar shifokori	Toshkent tumani KTP	
5	Ag`abekova Janar	Ko`z kasalliklar shifokori	Toshkent tumani KTP	
6	Ishimova Malika	Asab kasalliklari shifokori	Toshkent tumani KTP	
7	Yusufxo`jaeva Dilnoza	Tish kasalliklar shifokori	Toshkent tumani KTP	
8	Ernazarova Karima	Jarroh	Toshkent tumani KTP	
9	Xolikova Ma`mura	Antroprometriya	Toshkent tumani KTP	

Toshkent tuman hokimining
2022 yil 29 martdagi
113-10-212-Q/22-son qaroriga
6-ilova

Tuman Mudofaa ishlari bo`limiga 2022-yilgi chaqiruvni sifatli va belgilangan reja-jadval asosida o`tkazishni ta`minlash maqsadida texnik xodim ajratuvchi korxona va tashkilotlar

RO`YXATI

T/r	Tashkilot nomi	Texnik ishchilar soni	Ajratish muddati
1.	MKT "Vatanparvar" Keles o`quv sport texnika kulubi	2 nafar	01.03.2022-30.04.2022
2.	Tuman Davlat sanitariya-epidemiologik osoyishtalik xizmati	2 nafar	01.03.2022-30.04.2022
3.	Tuman obodonlashtirish boshqarmasi	2 nafar	01.03.2022-30.04.2022
4.	Tuman Tibbiyot birlashmasi	2 nafar	01.03.2022-30.04.2022
5.	“Xalq banki” filiali	2 nafar	01.03.2022-30.04.2022
6.	“Mikrokredit bank” filiali	2 nafar	01.03.2022-30.04.2022

Toshkent tuman hokimining
2022 yil 29 martdagi
113-10-212-Q/22-son qaroriga
7-ilova

Tumanda muddatli harbiy xizmatning belgilangan muddatlarini o‘tab bo‘lgan fuqarolarni xizmatdan bo‘shatish hamda O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlariga navbatdagi chaqiruvni yuqori saviyada o‘tkazish chora-tadbirlar

REJASI

T/r	Bajariladigan tadbirlar	Bajarish uchun mas’ullar	Bajarish muddati	Izoh
1.	O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari rezerviga bo‘shatilgan harbiy xizmatchilarni kutib olish	Tuman Mudofaa ishlari bo`limi vakillari	Mart-aprel oylari	
2.	O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari rezerviga bo‘shatilgan harbiy xizmatchilarni tuman, shahar hokimliklari, jamoat tashkilotlari vakillari, harbiy xizmatchilarning ota-onalari ishtirokida miting o‘tkazish	Tuman Mudofaa ishlari bo`limi vakillari	Mart-aprel oylari	
3.	Ijodiy jamolar va badiy havaskorlari, karnay-surnay, doirachilar ishtirokida tantanalarni tashkil etish	Tuman Madaniyat bo`limi	Mart-aprel oylari	
4.	Mehnat vazirligining joylardagi organlari vakillari ishtirokida ishga joylashtirish va kasbga yo‘naltirish yuzasidan ma’lumotlarni taqdim etish	Tuman Aholi bandligiga ko`maklashish markazi	Mart-aprel oylari	
5.	Qurolli Kuchlari rezerviga bo‘shatilgan harbiy xizmatchilarga esdalik sovg‘alarini topshirish	Tuman Mudofaa ishlari bo`limi, jamoat tashkilotlari vakillari	Mart-aprel oylari	

6.	Qurolli Kuchlari rezerviga bo‘shatilgan harbiy xizmatchilarni kutib olish jarayonlarini ommaviy ahborot vositalari yoritish	Tuman hokimligi Axborot xizmati	Mart-aprel oylari	
7.	Qurolli Kuchlari rezerviga bo‘shatilgan harbiy xizmatchilarni Mudofaa ishlari vakillari ishtirokida xavfsizlik choralariga rioya etilgan holda tashkiliy tartibda transportda yashash joylariga yetkazish	Tuman YTXX bo‘limi vakillari	Fevral, mart aprel oylari	
8.	Qurolli Kuchlari rezerviga bo‘shatilgan harbiy xizmatchilarni Mudofaa ishlari bo‘limlari tomonidan harbiy hisobga olishni amalga oshirish	Tuman Mudofaa ishlari bo`limi vakillari	Mart-aprel oylari	
9.	Qurolli Kuchlari rezerviga bo‘shatilgan harbiy xizmatchilarni kasbga yo‘naltirilishini va oliy ta’lim muasasasalariga o‘qishga kirgan fuqarolarni monitoringini olib borish	Tuman Mudofaa ishlari bo`limi vakillari va tuman Aholi bandligiga ko`maklashish markazi vakillari	Doimiy ravishda	
10.	Qurolli Kuchlari rezerviga bo‘shatilgan harbiy xizmatchilarni joylarda, ya’ni qishloq, mahalla fuqarolari yig‘inlarida ommaviy ahborot vositalari xodimlari ishtirokida tantanali kutib olish	Tuman hokimligi Axborot xizmati	Mart-aprel oylari	
11.	Qurolli Kuchlari rezerviga bo‘shatilgan harbiy xizmatchilarni doimiy ravishda ishga joylashtirish, mehnat bilan band qilish tadbirlarini amalga oshirish	Tuman Aholi bandligiga ko`maklashish markazi vakillari	Doimiy ravishda	
12.	Qurolli Kuchlar rezerviga bo‘shatilgan harbiy xizmatchilarni kutib olish, ularni ishga joylashtirish, mehnat bilan band qilish tadbirlari yuzasidan yakuniy axborot tayyorlash	Tuman Mudofaa ishlari bo`limi vakillari va tuman Aholi bandligiga ko`maklashish markazi vakillari	kutib olish tadbirlari yakunida	